

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

FUNKSIONAL USLUBLAR VA ULARNING TASNIFI HAQIDA

Feruz Rajabov,

QarMII akademik litseyi

ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

Roziqova Nilufar,

Kitob tumani 36-umumiy o'rta ta'lim

maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Bu maqolada funksional uslublar va ularning tasnifi haqida darslik, qo'llanmalarda talqin etilishi manbalarga tayangan holda tahlil qilishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: uslub, rasmiy uslub, aloqa formalari, funksional uslub, neytral nutq. Tilshunoslikda uslub (stil) termini to'g'risida, uni tushunish borasida turlicha fikrlar mavjud. O'zbek tilshunosligida uslub haqida bildirilgan fikrlarni umumlashtirishga urinish va uning mukammal ta'rifini yaratishga oid mulohazalar ham uchraydi. «*Stil* tilning jamiyat ijtimoiy faoliyatining ma'lum tomoni bilan bog'langan o'ziga xos lug'ati, frazeologik birikmalari, grammatik qurilmalari bilan xuddi shunday boshqa turlaridan, o'z ichki xususiyatlari bilan ham tafovut qilib turuvchi podsystemasidir. Demak, har bir uslub - podsystema boshqa uslub-dan - podsystemalardan o'ziga xos lug'aviy qatlami, turg'un birikmalari, morfologik shakllari, sintaktik tuzilishi bilan farqlanib turadi. Ammo bu, demak, uslublar o'ziga xos xususiyatlari bilan bir-birlaridan tamoman farq qiladi degan gap emas, albatta.

Har bir tildagi uslub turlari uchun umumiy bo'lgan shu tilning umumiy lug'at fondi, shakllar va sintaktik qurilmalar, erkin va turg'un birikmalar bo'ladi. Bu esa uslub turlarining hammasini bir milliy-adabiy tilga birlashtiradi»¹. Ushbu ta'rif tilshunoslik nuqtai nazaridan bir muncha mukammal hisoblansa-da, adabiyotshunoslik va san'atshunoslikda uslub termini boshqa ma'noda tushuniladi².

¹ Кўнғуров Р., Каримов С., Қурбонов Т. Ўзбек тилининг функционал стиллари. - Самарқанд: СамДУ, 1984, 7-б.

² Қаранг: Ҳомидий Ҳ., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати. -Тошкент: Ўқитувчи, 1983, 223-б.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Uslub tushunchasi haqida turlicha fikrlar mavjud bo'lgani singari vazifaviy uslublar va ularning tasnifi masalasida ham har xil qarashlar bildirilgan³. V.V.Vinogradov tasnifi tilning funksiyasiga ko'ra atroflicha qamrab olinganligi bilan tilshunoslikda muhim ahamiyatga ega bo'lib qoldi. U muomala uslubi (obixodno-delovoy) tilning aloqa vazifasiga; rasmiy (obixodno-delovoy), rasmiy-hujjat (ofisialno-dokumentalnoy)⁴ va ilmiy uslublar xabar vazifasiga; publisistik va badiiy uslublar ta'sir etish vazifasiga oidligini ko'rsatadi⁵.

Tasnif qilish prinsipida bir xil qarashning yo'qligi, ba'zi olimlar bir butun umumxalq tilini, ba'zilar faqat adabiy tilni hisobga olgan holda uni ekspressiv-emotsionallik, ekspressiv-janr va funksional-uslubiy tamoyillar asosida uslublarga bo'ladilar. Natijada uslublar soni va ularning nomlanishida xilma-xillik yuzaga keladi⁶.

Tilshunoslikda til uslublari turli nuqtai nazardan tasnif qilinib, ularning soni to'rttadan yettitagacha ko'rsatiladi. Keyingi yillarda esa ularning miqdori beshta deb qayd etila boshlandi⁷. Til uslublarini nomlashda 42 ta termin ishlatilgan⁸.

O'zbek tilshunosligida quyidagi uslublar ajratib ko'rsatilganligi va yakdil fikrga kelinganligi sohada ko'plab tadqiqotlarning yaratilishiga sabab bo'ldi: 1) so'zlashuv, 2) rasmiy(hujjat), 3) ilmiy, 4) publisistik, 5) badiiy uslublar. Bu tasnif o'zbek tilshunosligida mustahkam o'rin egallagan⁹.

Ma'lumki, til birliklaridan ijtimoiy munosabatlarda, avvalo, ehtiyojlardan kelib chiqib, nutq mavzusi va vaziyatga qarab turlicha foydalaniladi. Til birliklaridan tanlab foydalanish o'ziga xos uslubiy chegaralanishni taqozo qiladi. Til birliklarini

³ Каранг: Кожина М.Н. К основаниям функциональной стилистики. - Перм, 1986; Разинкина М.Н. Контрастные категории и их роль в лингвостилистическом изучении научной прозы. // Преподавание иностранных языков и его лингвистические основы. - М., 1972; Троянская Е.С. К общей концепции понимания функциональных стилей. // Особенности стиля научного изложения. - М., 1976.

⁴ Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. - М., 1963. - С.6.

⁵ Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. - М., 1963. - С.8.

⁶ Мукаррамов М. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили. - Тошкент: Фан, 1984, 13-б.

⁷ Кожина М.Н. Стилистика русского языка. - М., 1977. - С.157; Барлас Л.Г. Русский язык. Стилистика. - М., 1978. - С.58-177.

⁸ Каранг: Курбанов Т. Публицистический стиль современного узбекского литературного языка: Автореф. дис....канд. филол.наук. -Ташкент, 1987. - С.7.

⁹ Каранг: Қўнғуров Р., Каримов С., Курбанов Т. Ўзбек тилининг функционал стиллари. - Самарқанд, 1984, 15-б.; Шомаксудов А. Ўзбек адабий тили стиллари ҳақида. // Филологик тадқиқотлар./ ТошДУ асарлари. 376-чиқиши. - Тошкент, 1970, 219-241-б.; Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадий стил. - Тошкент: Фан, 1988, 56-70-б.; Ўринбоев Б. Ўзбек сўзлашув нутқи. - Тошкент, 1982; Мукаррамов М. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили. - Тошкент: Фан, 1984, 12-15-б. Профессор С.Каримов тадқиқотларида функционал услублар таснифига доир муҳим обзор материаллар берилган.

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

ijtimoiy muhitda tanlab ishlatish zarurati va ularni tilshunoslikda ilmiy-amaliy tahlil qilish uslubshunoslikda yangi sohani – vazifaviy uslubshunoslikni vujudga keltirdi. “Tilshunoslikning stilistika sohasi bilan shug‘ullangan deyarli barcha taniqli olimlar funksional uslublarga o‘z munosabatlarini bildirganlar, ularning tasnifini berishga harakat qilganlar. Bu tasniflardan birining ikkinchisiga aynan o‘xshaydiganlari kam. Tadqiqotchilarning biri ajratganlarini ikkinchisi birgalikda olib qaraydi, yoki aksincha, birgalikda olib qaralgan holatlar ajratiladi. Shunday qilib, funksional uslublar soni o‘ntagacha ko‘rsatiladi: badiiy-belletristik, ijtimoiy-publisistik (matbuot), ilmiy bayon, texnik-ishlab chiqarish, rasmiy-hujjat (idoraviy), epistolaryar, neytral, notiqlik, maishiy nutq, diniy kabi. Bu tasniflarning ko‘pchiligida asosan beshta uslub takrorlanadi: so‘zlashuv uslubi, rasmiy uslub, ilmiy uslub, publisistik uslub, badiiy uslub. O‘zbek tili stilistikasida ham funksional uslublar uchun ana shu tasnif asos qilib olingan.¹⁰

Tasniflar borasida o‘z mulohazalarini bildirgan ayrim mualliflar, masalan, M.Balakayev, V.Bondaletov, X.R.Kurbatov, A.I.Chijik-Poleykolar funksional uslublarni bunday tasnif qilgunga qadar, avvalo, ikkiga – yozma (kitobiy) va og‘zaki (so‘zlashuv) stillariga bo‘lib qarash lozim, deb hisoblaydilar.

A.Shomaqsudov bu haqdagi fikrini birmuncha keng bayon qilgan: «Stil turkumlarini tilning aloqa formalari – og‘zaki yoki yozma nutq ko‘rinishlari bo‘yicha belgilash tarafdori bo‘lganlar fikriga to‘la qo‘shilib bo‘lmaydi. Chunki, birinchidan, bu nutq ko‘rinishlarining stillar bilan chatishib ketgan, bog‘langan bo‘lishi, ularga hali to‘la ma’noda stillar turkumiga kirish huquqini bermaydi, ikkinchidan, og‘zaki yoki yozma nutk o‘zining belgi xususiyatlari bilan til stillaridan farqlanib turuvchi ayrim hodisadir, uchinchidan, u tarixiy hodisa bo‘lib, til taraqqiyoti bilan bog‘liq holda doim o‘sish, o‘zgarish xususiyatiga ega bo‘lgan stillarni tilning aloqa formalari (og‘zaki va yozma) doirasi bilan chegaralab bo‘lmaydi»¹¹.

A.Sulaymonovning «Til stillari haqida» maqolasida shunday fikrlar ifodalangan: «Stilistikaning vazifasi u yoki bu stilda yoki nutq formasida, ya’ni og‘zaki va yozma nutqda, qanday til hodisalari ko‘proq qo‘llanilishini aniqlashdan iboratdir»². Olim til stillarini yozma va og‘zaki so‘zlashuv stillariga ajratgan. G‘.Abdurahmonov tasnifida ham shunday yondashish mavjud: «Ma’lumki, nutq ikki xil (yozma va og‘zaki) nutqdan iborat. Yozma nutq: 1) badiiy nutq, 2) ilmiy nutq, 3) publisistik

¹⁰ Шомаксудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Х. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент, 1983, 143-б.

¹¹ Шомаксудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Х. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент, 1983, 143-б.

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

nutq, 4) rasmiy nutq, 5) neytral nutqdan iboratdir. (Bu nutq turlari ayrim adabiyotlarda stilistik qatlamlar sifatida talqin qilinadi). Og‘zaki nutq esa turli ijtimoiy qatlamlarning nutqlaridan, turli sheva nutqlaridan tashkil topadi. Nutq stili quyidagi qatlamlardan iborat bo‘ladi: 1) neytral stil, 2) tantanali stil, 3) intim stil, 4) yumoristik va satirik stil, 5) rasmiy stil. Nutqda (xoh yozma, xoh og‘zaki bo‘lsin) bu stil qatlamlari aralashib keladi, nutq janriga ko‘ra biror stilistik qatlam yetakchi, asos bo‘ladi»¹².

I.Qo‘chqortoyev “o‘zbek adabiy tili doirasida badiiy, ilmiy, ijtimoiy-siyosiy uslublarning o‘ziga xos xususiyatlari, ularni bir-biridan farqlaydigan belgilar ma’lum darajada aniq sezilib turadi»¹³, deb hisoblaydi. Funktsional uslublar tasnifi S.Muhamedov tadqiqotlarida ham uchraydi¹⁴.

Xulosa qilib aytganda, funksional uslublar ajratib ko‘rsatilgani holda, til birliklarini qo‘llashda ijtimoiy xoslanish va umumiylik nazarda tutilgan. Chunki til birligi faqat shu uslubga tegishli, deyish mantiqan asossiz hisoblanadi. Har bir uslub o‘ziga xos xususiyatlarga, qo‘llanilishi chegaralangan leksik birliklariga, ifoda imkoniyatlariga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Қўнғуров Р., Каримов С., Курбонов Т. Ўзбек тилининг функционал стиллари. - Самарқанд: СамДУ, 1984.
2. Разинкина М.Н. Контрастные категории и их роль в лингвостилистическом изучении научной прозы. // Преподавание иностранных языков и его лингвистические основы. - М., 1972 .
3. Троянская Е.С. К общей концепции понимания функциональных стилей. // Особенности стиля научного изложения. - М., 1976.
4. Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. - М., 1963.
5. Мукаррамов М. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили.-Тошкент: Фан, 1984.
6. Барлас Л.Г. Русский язык. Стилистика. - М., 1978.

¹² Абдурахмонов Ф. Стилистик нормалар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1969, 6-сон, 51-б.

¹³ Қўчқортоев И. Адабий тилнинг стилистик табақаланиши ва нутқ маданияти // Нутқ маданиятига оид масалалар. – Тошкент, 1973, 110-б.

¹⁴ Қўчқортоев И. Адабий тилнинг стилистик табақаланиши ва нутқ маданияти // Нутқ маданиятига оид масалалар. – Тошкент, 1973, 110-б.

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

7. Курбанов Т. Публицистический стиль современного узбекского литературного языка: Автореф. дис....канд. филол.наук. Ташкент - 1987.
8. Қўнғуров Р., Каримов С., Қурбонов Т. Ўзбек тилининг функционал стиллари. - Самарқанд, 1984, 15-б.; Шомақсудов А. Ўзбек адабий тили стиллари ҳақида. // Филологик тадқиқотлар./ ТошДУ асарлари. 376-чиқиши. Тошкент -1970.
9. Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадиий стиль. - Тошкент: Фан, 1988.
10. Ўринбоев Б. Ўзбек сўзлашув нутқи. Тошкент-1982.
11. Мукаррамов М. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили. - Тошкент: Фан -1984.
12. Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. Тошкент - 1983.
13. Абдурахмонов Ғ. Стилистик нормалар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1969.
14. Қўчқортасов И. Адабий тилнинг стилистик табақаланиши ва нутқ маданияти // Нутқ маданиятига оид масалалар. Тошкент-1973.

